



JAROHATLARDAN QO'LLARNI HIMOYALOVCHI HIMOYA VOSITALARI

¹Mirzaxmedov Jaxongir Suratillayevich

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy-tadqiqot instituti, "Shaxsiy ximoya vositalarini sertifikatlashtirish laboratoriyasi" mudiri

²Mahmudov Farrux Furqatovich

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy-tadqiqot instituti, "Shaxsiy ximoya vositalarini sertifikatlashtirish laboratoriyasi" Katta ilmiy xodimi farrux.4934@mail.ru

tel: +998900120799

³Bekbaev M.

Kambag'allikni qisqartirish va mehnat masalalari ilmiy-tadqiqot instituti Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha markaziy laboratoriya Katta ilmiy xodimi 911662409

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7994623>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Mehnat muhofazasi,
himoyalash, qo'l, filtr,
izolyatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qo'llarni jarohatlardan himoyalovchi vositalar, terini himoyalash masalalari muhokama etiladi.

Qo'llarni himoyalovchi shaxsiy vositalar himoyalash xususiyatiga qarab filtrlovchi va ayiruvchi (izolyatsiyalovchi) turlarga bo'linadi. Terini izolyatsiyalovchi himoya vositalari havo o'tkazmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Ular zich yopiladigan (germetik) va zich yopilmaydigan (nogermetik) bo'lishi mumkin. Zich yopiladigan vositalar kishi tanasini to'liq berkitadi va zaharlovchi moddalarning bug'i va tomchilaridan himoya qiladi. Zich yopilmaydigan vositalar esa faqat tomchi holdagi zaharlovchi moddalardan himoya qiladi. Bundan tashqari, bu vositalar kishi terisini bevosita radioaktiv na bakterial vositalar ta'siridan ham himoya qiladi.

Terini himoyalovchi filtrlovchi vositalar ip - gazlamadan tayyorlangan bo'lib, unga maxsus kimyoviy modda shimdiriladi. Bunda matoning havo o'tkazuvchanligi saqlanib qoladi, zaxarlovchi moddalar iplar orasidan o'tayotgan vaqtda yutiladi va neytrallanadi.

Shaxsiy terini himoyalovchi asosiy vositalarga umumqo'shin himoya to'plami (OZK) va L-1 yengil himoya kostyumi kiradi.

OZK va L-1 kostyumi himoya ta'siri qoidasiga ko'ra terini, kiyim kechaklarni va oyoq kiyimlarini zaharlovchi moddalar, radioaktiv moddalar va bakterial vositalar ta'siridan ajratishga asoslangan bo'ladi.

Umumqo'shin himoya to'plami himoya plashi, himoya paypog'i hamda himoya qo'lqoplaridan iborat bo'ladi.



Himoya plashi rezinali materialdan tayyorlanib, ishlashga qulay bo'lishi hamda qo'lga zich yopishib turishi uchun yengining uchiga rezina tasma tikilgan bo'ladi. Qalpoqchani katta kichik qilish uchun cho'ziladigan tasma o'rnatiladi.

Plashlar bo'yi 166 sm gacha bo'lgan kishilar uchun - birinchi, 166 sm dan 172 sm gacha - ikkinchi, 172 sm dan 178 sm gacha - uchinchi, 178 sm dan 184 sm gacha va undan yuqorisi - to'rtinchi o'lchamda bo'ladi.

Himoya paypoqlari ham rezina qo'shilgan matodan tayyorlanadi, asosi qalin rezinadan iborat. Ular oyoq kiyimi ustidan kiyiladi va oyoqqa maxsus tikilgan tasma yordamida mahkamlanadi. Belga taqiladigan kamarga esa tasmalar yordamida birlashtiriladi. Himoya paypoqlarining 40-poyafzal uchun birinchi, 41-42 poyafzal uchun ikkinchi, 43 va undan katta poyafzal kiyuvchilar uchun uchinchi o'lcham to'g'ri keladi.

Himoya qo'lkoplarini ikki xilda tayyorlangan bo'lib, qishda kiyish uchun ikki panjali va yozda besh panjali bo'ladi. Qishki qo'lqoplar ichiga issiq saqlash uchun astar kiygiziladi va tugma qadaladi.

L-1 yengil himoya kostyumi teri qavatlarini va kiyimlarni kimyoviy, radiaktiv moddalar hamda bakterial vositalardan zararlanishdan himoya qilishga mo'ljallangan.

U rezina matodan tayyorlangan bo'lib, kapyushonli kurtka, paypoqli shim, podshlemnik va ikki barmoqli himoya qo'lkoplaridan iborat.

Paypoqli shimning yuqori qismiga ikkita yelka tasmasi va paypoqni oyoqqa zich qilib bog'lash uchun bog'ichlar tikilgan. Kapyushonli kurtkaning orqa qismiga chok orqasidan o'tadigan belbog' tikilgan bo'lib, kurtkaning oldi tomonidagi tugmaga o'tkaziladi.

L-1 yengil himoya kostyumi 3 o'lchovda, bo'yi 165 sm gacha bo'lgan uchun birinchi, 165 sm dan 172 gacha bo'lganlarga ikkinchi, 172 sm dan yuqori bo'lganlarga uchinchi o'lchovda tayyorlangan bo'ladi.

L-1 yengil himoya kostyumi ish qobiliyatini yaxshiroq saqlash uchun 10°S day yuqori haroratda ishchi kiyim ustidan, 0°S dan - 10°S gacha haroratda yozgi kiyim ustidan, 0°S dan past haroratda esa qishki kiyim ustidan kiyiladi.

Shuningdek, terini himoya qilishda har qanday vositalardan keng foydalanish mumkin. Bunda suv o'tmaydigan gazmoldan tikilgan nakidka, plash, paxtali kurtka va shim, sport kostyumlari, ish kambinzonlari, charmdan tikilgan kurtka va plashlar, qattiq gazmoldan tikilgan kapyushonkalardan foydalanish mumkin.

Oyoqqa rezina charm etik, kalish kiyish kerak. Qo'lga charm yoki rezina qo'lqop kiyiladi. Bo'yin va boshni himoya qilish uchun qalin gazmoldan kapyushon tikib olinadi. Sport kastyumiga, kombinizonga yoki boshqa kostyumlarga sovun yog' emulsiyasini yoki yuvuvchi moddalar eritmasini shimdirish mumkin.

Shaxsiy tibbiyot vositalari ham fuqarolar muhofazasida muhim o'rin tutadi. Ionlantiruvchi nurlardan, zaharlovchi moddalardan, bakterial vositalardan hamda kuyishdan saqlashda shaxsiy doriqutilardan (ShD-2) foydalaniladi. Bu vosita 130 gr bo'lib, saqlanish muddati - 3 yil.

Doriqutiga dori moddalar va qirg'in qurollari ta'siriga qarshi kurashadigan protektorlar joylashtirilgan:

- shaxsiy tibbiyot doriqutisiga og'riq qoldiradigan shpris-tyubik ninasi bilan joylashtirilgan;



- fosfor organik zaharli moddalar bilan zaharlanganda ishlatiladigan taren-6 tabletka dorisi bor. Bu dori kimyoviy ogohlantirishda 1 ta tabletkadan ichiladi;

- baktereologik vositalarga qarshi ishlatiladigan dori - «№ 1» (oq shishada - tetrasiklin gidroxlorid) joylashgan. Bu doridan baktereologik qurol ishlatilganda, jarohatlar olganda va kuyganda foydalaniladi. Bunda bir yo'la 5 ta tabletka ichiladi va 6 soatdan keyin yana 5 tasi ichiladi (vabo, o'lat, Sibir yarasi).

- biologik ta'sirlarga qarshi ishlatiluvchi sulfodometoksin (5 tabletka) dorisi qo'yilgan. Bu dorini oshqozon-ichak kasalligi boshlanganda bir yo'la 7 ta tabletkasi va keyingi kunlarda 4 tadan ichiladi;

- radiosaqlovchi vosita № 1 (sistamin) joylashgan bo'lib, u nurlanish yuz berganda bir yo'la 6 ta tabletka ichiladi.

Shaxsiy bog'lov paketi (ShBP). Ommaviy shikastlanishlarda dala sharoitida birlamchi bog'lam sifatida shaxsiy bog'lov paketi keng qo'llaniladp. Paket ikkita 17-32 sm li steril paxta-dokali yostiqchalardan iborat bo'lib, eni 10 sm, uzunligi 7 metr bo'lgan bintga bog'langan. Yostiqchalarning biri qattiq mahkamlangan, ikkinchisi esa ko'zg'aluvchan bo'lib, uni kerak bo'lgan joyga qo'yish mumkin. Yostiqchanning bir tarafi rangli ip bilan tikilgan, bog'lov qo'yadigan vaqtda shu tarafidan ushlansa bo'ladi. Bog'lov materiali oq qog'ozga o'rab qo'yilgan va ustidan rezinali materialdan tayyorlangan qobiq bilan germetik qilib berkitilgan. Oq qog'oz ichiga bint oxirini mahkamlash uchun tug'nog'ich solib qo'yilgan. Paket steril holatda ishlab chiqariladi.

References:

1. E.I.Ibragimovva bosq. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. -T.: TIMI-2014.
2. O.R.Yuldashyev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. T. Darslik" Toshkent-iqtisodiyot", 2014. 268 b
3. A. Mark, P. Friend Jeyms Fundamental Sof Mehnat xavfsizligi va salomatligi. Bernan Press. Germaniya, 2017 yil
4. www.ziyonet.uz